



FINLAND

INTERNATIONAL SCIENTIFIC
ONLINE CONFERENCE

SUSTAINABILITY OF EDUCATION, SOCIO-ECONOMIC SCIENCE THEORY



ISOC
INTERNATIONAL
SCIENTIFIC
ONLINE
CONFERENCES



SUSTAINABILITY OF EDUCATION SOCIO- ECONOMIC SCIENCE THEORY

International scientific-online conference

Part 13
DECEMBER 7th
COLLECTIONS OF SCIENTIFIC WORKS

HELSINKI 2023

SUSTAINABILITY OF EDUCATION SOCIO-ECONOMIC SCIENCE THEORY: a collection of scientific works of the International scientific online conference (7th December, 2023) – Finland, Helsinki: "CESS", 2023. Part 13 –312p.

Chief editor:

Candra Zonyfar - PhD Universitas Buana Perjuangan Karawang, Indonesia Sunmoon University, South Korea.

Editorial board:

Martha Merrill - PhD Kent State University, USA

David Pearce - ScD Washington, D.C., USA

Emma Sabzalieva - PhD Toronto, Canada

Languages of publication: русский, english, қазақша, о'zbek, limba română, кыргыз тили, Հայերէն....

The collection consists of scientific researches of scientists, graduate students and students who took part in the International Scientific online conference.

" SUSTAINABILITY OF EDUCATION SOCIO-ECONOMIC SCIENCE THEORY ". Which took place in Helsinki on December 7th, 2023.

Conference proceedings are recommended for scientists and teachers in higher education establishments. They can be used in education, including the process of post - graduate teaching, preparation for obtain bachelors' and masters' degrees. The review of all articles was accomplished by experts, materials are according to authors copyright. The authors are responsible for content, researches results and errors.

© "CESS", 2023
© Authors, 2023

X.X. Keldiyev O.D.Nurov <i>SIGNAL KUCHAYTIRGICH YORDAMIDA YUQORI CHASTOTALI SIGNALLAR HOSIL QILISH-UZATISH USULLARI VA ASOSIY TEXNIK KO'RSATKICHLARI</i>	
Khudoykulov Rustam Kuchkarovich <i>EDUCATIONAL MOMENT TECHNOLOGY IN DEVELOPING TECHNOLOGICAL COMPETENCE IN FUTURE ENGINEERS</i>	111
Lutfullayeva N.B Narzullayev H.B <i>TEXNOGEN HUDUDLARNI MELIORATSIYA QILISH UCHUN SUVNI TOZALAGANDAN KEYIN CHO'KMALARDAN FOYDALANISH</i>	114
Mamajonova Navruza Ahmadjon qizi <i>O'QUVCHILARNING SO'Z BOYLIGINI OSHIRISHDA QO'LLANILADIGAN INTERAKTIV METOD VA USULLAR</i>	118
Komiljonov Jasurbek O'ktamjon o'g'li Obidjonova Muhlis Bobirjon qizi <i>TRANSFORMATORLAR VA ULARNING ISHLASH PRINSIPI</i>	122
Qosbergenov Aqilbek Idirisovich Qosbergenov Aqilbel Idirisovich <i>TALABANIŇ SAXNA SÓZIN ÚYRENIWINIŇ ÁHMIYETI</i>	126
Shaydullayeva Kamola Shapulatovna <i>TAFAKKUR VA PEDAGOGIK TAFAKKUR TUSHUNCHALARINING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK TAHLILI</i>	130
Турсунова Шахноза Ашрафовна Абдуллаев Асадбек Жасурбекович <i>THE UPDATED CONSTITUTION IS THE GUARANTOR OF DEVELOPMENT!</i>	133
Axmedova Sevara Rakhmankulovna Abdullayev Ismatulla Ne'matilla o'g'li <i>THE IMPORTANCE OF EMOTIONS IN CULTURAL CONSTRUCTIONS</i>	137
Hakimova Mohinur Bahriddin qizi <i>SPECIFIC CHARACTERISTICS IN PRESCHOOL CHILDREN</i>	143
Usmonova Zarina Habibovna Barnoeva Madinabonu Akbarovna <i>STYLISTIC ANALYSIS OF SHORT STORY "ROSE FOR EMILY" BY WILLIAM FAULKNER</i>	146
Fayzullayeva Nigina Botir qizi <i>INSHO YOZISH KO'NIKMASI ORQALI O'QUVCHINING YARATUVCHANLIK MAHORATINI SHAKLLANTIRISH (8-SINF DARSLIGI ASOSIDA)</i>	150
Aliyev Dalerjon <i>YOLGO'N NAZARIYASI, UNING KELIB CHIQISH SABABLARI VA SHAKLLARI</i>	154
Mirmaxsudova Gulzoda Mirmansurovna <i>MEXNAT MUHOFAZASI VA XAFSIZLIK TEXNIKASI</i>	158

O'QUVCHILARNING SO'Z BOYLIGINI OSHIRISHDA QO'LLANILADIGAN INTERAKTIV METOD VA USULLAR

Mamajonova Navruza Ahmadjon qizi

Alfraganus universiteti Nodavlat oliy ta'lim muassasasi o'qituvchisi

Tel.: +998938031903

Annotatsiya: Mazkur maqolada o'quvchilarning so'z boyligini oshirishda qo'llaniladigan interaktiv metod va usullar, ularning ta'lim tizimidagi samaradorligi haqida fikr yuritiladi. O'quvchining so'z boyligini oshirishga xizmat qiladigan metod va usullar tavsiya etiladi.

Kalit so'zlar: nutq boyligi, nutqning ta'sir quvvati, interaktiv metodlar, uslubiy yondashuv, "Aql xaritasi"

ИНТЕРАКТИВНЫЕ МЕТОДЫ И МЕТОДЫ, ИСПОЛЬЗУЕМЫЕ ДЛЯ ПОВЫШЕНИЯ СЛОВАРНОГО СЛОВА СТУДЕНТОВ

Аннотация: В данной статье рассматриваются интерактивные методы и методы, используемые для увеличения словарного запаса учащихся и их эффективности в образовательной системе. Рекомендуются методы и приемы, служащие увеличению словарного запаса обучающегося.

Ключевые слова: *богатство речи, сила речи, интерактивные методы, методический подход, «Интеллект-карта».*

INTERACTIVE METHODS AND METHODS USED IN INCREASE OF STUDENTS' VOCABULARY

Abstract: *This article discusses the interactive methods and methods used to increase students' vocabulary and their effectiveness in the educational system. Methods and methods that serve to increase the student's vocabulary are recommended.*

Key words: *richness of speech, power of speech, interactive methods, methodological approach, "Mind Map"*

KIRISH

Nutq ta'sir va tasvir quvvatini namoyon qilishi uchun u boylik sifatiga ega bo'lishi zarur. Nutqning boy yoki kambag'alligi unda tilning bir-biridan farq qiladigan unsurlari (so'zlar, ma'nolar, intonatsiya, sintaktik tuzilmalar, iboralar va sh.k)dan qay darajada foydalanilganlik bilan belgilanadi. Ayni bir til unsuri nutqda qanchalik kam takrorlangan bo'lsa, bu nutqning boylik darajasi shunchalik yuqori bo'ladi yoki, aksincha, muayyan til unsurining takrori ko'p bo'lgan nutq kambag'al hisoblanadi va uning ta'siri ham shunga yarasha bo'ladi. Nutqning bu sifati rang-baranglik tarzida ham talqin etiladi, ya'ni boylik tegishli fikr ifodasi uchun qo'llangan til birliklarining xilma-xilligi, rang-barangligi bilan

o'lganadi. Boy nutq tuzish uchun ifodalarning bir xilligidan qochish, ayni bir tushuncha yoki fikrga farqli-farqli til birliklarini tanlash lozim. Buning uchun esa nutq tuzuvchi yetarli miqdordagi so'zlar, ularning ma'nolari, so'z birikmasi va gap modellari zaxiralariga ega bo'lishi talab etiladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Nutqning boyligini ta'minlashda bir qancha til vositalari ishtirok etadi. Ular orasida leksik, semantik, grammatik, intonatsion vositalar alohida o'rin tutadi. Boy, shirali nutq tuza olish uchun so'zlovchining, eng, avvalo, so'z zaxirasi boy bo'lmog'i kerak. Atoqli so'z san'atkorlarida, masalan, ulug' Alisher Navoiyda 26 mingdan ortiq, rus shoiri A. S. Pushkinda 21 mingdan ortiq so'z boyligi mavjudligini mutaxassislar ta'kidlaydilar. Nutqning boyligini ta'minlashda, ayniqsa, ma'nodoshlik katta imkoniyatga ega. Ma'nodoshlik faqat so'zlar doirasidagina emas, balki morfologik va sintaktik birliklar doirasida ham keng tarqalgan. Matnda so'z, so'z birikmasi va gap takroridan qochishning eng qulay yo'llaridan biri ayni shu ma'nodoshlik asosida bir xil birliklarni almashtirishdir. Tilimizdagi sodda va qo'shma gaplar, murakkablashgan gaplar, ularning xilma-xil qoliplari, bu qoliplar asosida yaratilishi mumkin bo'lgan millionlab jumlar boy nutq tuzish uchun cheksiz imkoniyatdir. Bulardan xabardor kishining nutqi tarkib nuqtayi nazaridan faqat bir xil qolipdagi jumalardan tarkib topmaydi, ya'ni bir xil sintaktik birliklar takroridan iborat bo'lmaydi. Nutqning boylik darajasini pasaytiruvchi leksik, semantik, morfologik, sintaktik va intonatsion takrorlarni badiiy nutqda alohida badiiy maqsad bilan atayin qo'llanadigan takrorlardan farqlash lozim.

Masalan: Bu kipp karvonlar boshida nordir, Yurt bu kipp Sharq ichra tengsiz bir diyor. Yurt bu kipp ohuday xo'p ishvakordir, Sir kabi seravjdin, Pomirday poydor. (A. Oripov)

Ona tili ta'limida o'quvchilarning nutqini o'stirish, lug'at boyligini rivojlantirish uchun interaktiv metodlardan foydalanish yuqori samara beradi.



Ta'limning interaktiv metodlari. Pedagogik texnologiyalarning bugungi kunda eng ommaviylashgan turlaridan biri-bu interaktiv metodlardir. Interaktiv metodlar o'quvchi va o'qituvchining birgalikdagi faoliyati bo'lib, asosan o'quvchilarni fikrlashga undaydi. Kerakli xulosalarga kelishni, ularga o'zini tahlil qilishni va amaliyotda qo'llashni o'rgatadi. O'qituvchining asosiy vazifasi bu yerda o'quvchilarga yo'l ko'rsatish, yo'nalish berish, eng to'g'ri xulosani aytishdan iborat. Interaktiv usullar yana shunisi bilan ham ahamiyatli, o'qituvchi o'quvchining fikrini hech qachon keskin rad etmaydi, faqatgina vaqti bilan to'g'ri xulosani aytib o'tib ketadi, natijada o'quvchi xatosini o'zi tushunib oladi. Bu esa ularni tushkunlikka tushish, fikrlashda tormozlanish kabi holatlarning oldini oladi. Interaktiv metodlar o'quvchi va o'qituvchi o'rtasidagi o'zaro hurmatga asoslanadi. O'qituvchi qanday bo'lmasin o'quvchining fikrini tinglaydi va hurmat bilan qarashini bildiradi, shu bilan birga o'quvchilarni bir-birlarini tinglashga o'rgatadi. e'tirozlar, qo'shimchalar ham "hurmatli", "sizning fikringizga qo'shilgan holda", "bizning ham ayrim fikrlarimiz bor edi" kabi so'zlar orqali bildiriladi. Bunday tarzda tashkil etilgan darsda o'quvchi o'zini hurmat qilinayotganligini sezadi va bunday sharoitda hech qanday tazyiqsiz erkin fikrlay boshlaydi va uni ochiq bayon eta oladi. U boshqalarni ham hurmat qilishga o'rganadi.

Interaktiv metodlar o'quvchilarda doimiy faollikni ta'minlaydi. O'quvchilar dars davomida bo'sh qolmaydilar, ular mavzuga oid biror bir muammo bilan band bo'ladilar. Natijada esa zerikish holatini oldi olinadi. Interaktiv metodlardan foydalanishda o'qituvchi,

eng avvalo, darsning texnologik loyihasini tuzib olishi lozim. Darsni texnologik loyihalash uchun esa o'qituvchi interaktiv metod strategiyalari va usullari bilan tanish bo'lishi lozim. Bugungi kunda bir qator rivojlangan mamlakatlarda o'quvchilarning o'quv va ijodiy faolliklarini oshiruvchi hamda ta'lim-tarbiya jarayonining samaradorligini kafolatlovchi pedagogik texnologiyalarni qo'llash borasida boy tajriba to'plagan bo'lib, ushbu tajriba asoslarini tashkil etuvchi metodlar o'ziga xos ahamiyatga egadir.

Interaktiv metodlarga o'quvchilarni faollashtirishga yo'naltirilgan metodlar, o'zaro, hamkorlikda ishlashga yo'naltirilgan metodlar, chizmalar yordamida amalga oshiriladigan metodlar, matn bilan ishlash orqali amalga oshiriladigan interfaol metodlar, yakka, juft, guruh bilan ishlashga yo'naltirilgan metodlar, videometod, multimedia va media metodlar kiradi.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, interfaol metodlar yordamida o'tilgan darslar an'anaviy darslarga nisbatan samaralidir.



Interaktiv uslubiy yondashuvda o'quvchilar bilish va o'rganish jarayoniga butunlay sho'ng'ib ketadilar, ular o'zlari bilgan va o'ylayotganlari xususida bahslashishilari ham mumkin. Interaktiv darslar maqsadga erishish uchun yetarli zamin yaratadi. O'qituvchi

dars rejasini tuzadi (qoida bo'yicha interaktiv mashq va topshiriqlar o'quvchi o'zlashtirayotgan material bilan o'zaro bog'liq bo'ladi). O'quvchilar bajaradigan interfaol darsdagi interaktiv mashq va topshiriqlar uning asosiy tarkibi hisoblanadi. Oddiy mashq va topshiriqlardan shunisi bilan farqlanadiki, ularni bajarish jarayonida o'rganilgan material nafaqat mustahkamlanadi, balki yana yangilari ham olinadi. Shuningdek, bu mashq va topshiriqlar interaktiv yondashuvga mo'ljallangan bo'lib, zamonaviy pedagogikada ham uning boy zahirasi to'plangan, shulardan quyidagilarni ajratib olamiz:

1. Ijodiy topshiriq.
2. Kichik guruhlar bilan ishlash.
3. Ta'limiy o'yinlar (rolli, maqsadli va bilim beruvchi o'yinlar).
4. Jamiyatdagi zahiralaridan foydalanish (mutaxassis taklif etish, ekskursiyalar).
5. Ijtimoiy loyihalar va auditoriyadan tashqari beriladigan ta'lim metodlari (ijtimoiy loyihalar, radio va gazetalar, filmlar, sahna asarlari, qo'shiq va ertaklar).
6. Razminka.
7. Yangi materialni o'rganish va mustahkamlash (interfaol ma'ruza, ko'rgazmali qurollar bilan ishlash, video va audio materiallar, "o'quvchi-o'qituvchi rovida", "har bir kishi har bir kishiga o'rgatadi"), mozaika (ajurli arra) savollardan foydalanish).
8. Murakkab va muzokara talab savol va muammolarni yechish ("fikir maktabi", "pozitsiyani egalla", "POPS" loyihalashtirilgan texnikalar, "bir o'zing, ikki kishi birgalikda", "pozitsiyani o'zgartir", "karrusel", "televizion tok shou uslubida munozara", debatlar, simpozium).
9. Muammo-yechim ("yechimli daraxt", "aqliy xujum", "kazuuslar tahlili", "kelishuvlar va mediatsiya") va hokozo.

Tahlil va natija. Topshiriqlardan so'ng, albatta, so'zlarning ma'nolari tahlil qilinadi. Darsda yangi so'zlarni mashq qilish orqali ham nutqni boyitish mumkin. O'qituvchi tomonidan biror bir so'zga ta'rif berilgani o'qib eshittiriladi (audio), o'quvchilar esa bu ta'rifni bir so'z bilan nomlashlari kerak bo'ladi.

Taklif va xulosalar. O'quvchilarning lug'at boyligini rivojlantirishda interaktiv metod va usullarning ahamiyati katta. Dars jarayonida ushbu metodlardan foydalanish darsning samaradorligini oshiradi va o'quvchining lug'at boyligini rivojlantirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI :

1. Carmen M. Learning vocabulary in context through explicit instruction improves language learning in the classroom. Dissertasion for teaching english to speakers of other language, 2020.
2. Murodova A. 5-sinf o'quvchilarida eshitib tushunish malakasini shakllantirishning nazariy va metodik asoslari: Mag.diss. –T., ToshDO'TAU, 2020.
3. Nunan D. Language Teaching Methodology. A textbook for teachers, 1991.
4. Paul. Learning vocabulary in another language, 2000.
5. Qosimova K. O'zbek maktablarining 5-sinfida ona tili darslarida lug'at ustida ishlash: ped.f.nomz. diss. –T., 1966.